

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INKLYUZIV TA'LIM MUHITINI YARATISHDA DIFFERENSIAL YONDASHUV VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASHTIRISH METODIKASINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Temirova Sevara Shokir qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Boshlang'ich ta'lim 5-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19939594>

Annotatsiya. Ushbu tezisimizda boshlang'ich sinfardagi inklyuziv jarayonni chuqur tahlil qildik. IDIA metodikasi bu shunchaki nazariya emas, balki pedagogik amaliyotim davomida shakllangan metodik tajribadir. Bu taklif etayotgan innovatsion adaptatsiya yo'llari har bir o'quvchining (ko'rish, eshitish yoki tayanch-harakat a'zolarida va austik spektr buzulishida muammosi borligidan qat'i nazar) o'quv dasturini to'liq o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Inklyuziv ta'lim, IDIA metodikasi, diferensial yondashuv, innovatsiya, integratsiya, boshlang'ich sinf, pedagogik mahorat.

Аннотация. В данном тезисе нами глубоко проанализирован инклюзивный процесс в начальных классах. Методика IDIA — это не просто теория, а методический опыт, сформировавшийся в ходе моей педагогической практики. Предлагаемые инновационные пути адаптации служат обеспечению полноценного усвоения учебной программы каждым учащимся, независимо от наличия у него нарушений зрения, слуха, опорно-двигательного аппарата или расстройств аутистического спектра.

Ключевые слова: инклюзивное образование, методика IDIA, дифференцированный подход, инновация, интеграция, начальный класс, педагогическое мастерство.

Annotation. In this thesis, we have deeply analyzed the inclusive process in primary classes. The IDIA methodology is not merely a theory, but a methodological experience formed during my pedagogical practice. The proposed innovative adaptation approaches are aimed at ensuring that every student fully masters the curriculum, regardless of whether they have visual, hearing, musculoskeletal impairments, or autism spectrum disorders.

Keywords: inclusive education, IDIA methodology, differential approach, innovation, integration, primary class, pedagogical competence.

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlar har bir bolaning individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz uchun ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining eng asosiy va muqaddas yo'lidir" [1; 248-b.]. Ayniqsa, boshlang'ich sinfarda inklyuziv muhitni yaratish orqali barcha bolalarga teng imkoniyat berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. 2020-2025 yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi bu boradagi huquqiy asoslarni belgilab berdi [5]. "O'zbekistonda Inklyuziv ta'lim" loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, loyihada O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Navoiy shahridagi "Hayot" nomli nogironlarga yordam berish markazi va viloyatlarimizda ko'pgina ijtimoiy ko'mak berish markazlari faoliyat yuritmoqdalar. Boshlang'ich sinf o'quvchisining dunyoqarashi va ijtimoiy ko'nikmalari aynan 1-4-sinfarda shakllanadi. Inklyuziv muhitda

o'quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki bag'rikenglik, o'zaro yordam va insoniylik kabi oliyjanob fazilatlarni amalda o'rganadilar.

Inklyuziv ta'lim bu shunchaki jismoniy integratsiya emas, balki bolaning ijtimoiy moslashuvidir. Buyuk psixolog L.S.Vygotskiy yozganidek: "Bola nuqsonining o'zi emas, balki uning ijtimoiy muhitga moslasha olmasligi asosiy muammodir" [3; 112-b.]. Shu sababli, dars jarayonida diferensial yondashuvni qo'llash zarurati tug'iladi. G.N. Ibragimovanning fikricha: "Diferensial o'qitish bu o'quvchining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini tashkil etish shaklidir" [2; 56-b.]. Diferensial yondashuv bu o'quvchilarni ularning qobiliyati, qiziqishi va sog'lig'i holatidan kelib chiqib guruhlash va har bir guruhga mos o'quv materialini taqdim etishdir. Inklyuziv ta'limda bu yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

Individuallik: Har bir bola takrorlanmas ekanligini tan olish. Moslashuvchanlik: O'quv dasturini bolaning ehtiyojiga moslashtirish. Muvafaqiyat tuyg'usi: Har bir o'quvchi uchun erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni belgilash. Biroq, turli darajadagi o'quvchilar bilan bir xil metodika asosida ishlash kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli, dars jarayonida diferensial yondashuvni qo'llash dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi..Boshlang'ich sinfda inklyuziv muhitni yaratish faqatgina jismoniy sharoit yaratish emas, balki ta'lim jarayoniga yangicha metodik yondashuvlarni olib kirishni taqozo etadi. Mazkur maqolaning dolzarbligi – innovatsion texnologiyalar yordamida har xil ehtiyojga ega o'quvchilarni yagona ta'lim muhitiga muvafaqiyatli integratsiya qilishdan iborat. Va bu metodikani qo'llash o'zinning va boshqa hamkasblarimning eng sevimli metodi bo'ladi deb o'ylayman. "IDIA" – Mualliflik metodikasi: Tuzilishi va komponentlari. Maqolaning ilmiy yangiligi sifatida "IDIA" (Integratsiyalashgan Diferensial Innovatsion Adaptatsiya) metodikasini taklif etaman. Ushbu metodika 4 ta asosiy bosqichdan iborat:

1. Bosqich. I. Integratsiyalashgan kontent yaratish. O'qituvchi dars mavzusini faqat darslik orqali emas, balki multimediya (video), sensorli (maketlar) va auditor (audio) shakllarda integratsiya qiladi. Bu "Universal Design for Learning" (UDL) xalqaro standartiga mos keladi.

2. Bosqich. D. Diferensial topshiriqlar tizimi. Sinfda o'quvchilar 3 darajaga ajratiladi: 1.Reproduktiv daraja: Ma'lumotni qayta tushuntirib bera olish (maxsus ehtiyojli bolalar uchun). 2.Produktiv daraja: Namunaga qarab topshiriq bajarish (o'rtacha o'zlashtiruvchi bolalar). 3.Ijodiy daraja: Muammoli vaziyatlarni hal qilish (iqtidorli bolalar)...

4.Bosqich. A. Adaptiv baholash. (KPI uslubi)Baholashda o'quvchi sinfdoshlari bilan emas, balki o'zining kechagi natijasi bilan solishtiriladi. Bu motivatsiyani pasayishini oldini oladi. Metodikaning pedagogik ahamiyati va samaradorligi. IDIA metodikasining amaliyotga joriy etilishi natijasida: Akademik o'sish: O'quvchilarning o'zlashtirish sifati 25-30% ga oshadi [2; 60-b.]. Ijtimoiy muhit: Sinfda bag'rikenglik (tolerantlik) muhiti shakllanadi. Sog'lom bolalar maxsus ehtiyojli tengdoshlariga yordam berishni (tyutorlik) o'rganadilar. Psixologik barqarorlik: O'quvchilarda darsdan qo'rqish va o'zini begona his qilish tuyg'usi yo'qoladi. Aslida, IDIA (Integratsiyalashgan Diferensial Innovatsion Adaptatsiya) metodikasi dunyodagi eng ilg'or ikki xil tizimning sintezidan (birlashmasidan) kelib chiqqan. Biz "IDIA" deb nomlagan bu yondashuv quyidagi xalqaro amaliyotlarda qo'llaniladi.

Finlyandiya va Estoniyada: Bu "Differentiated Instruction" (Tabaqalashtirilgan ta'lim) tizimi 1-sinf dan qo'llaniladi. Ular darsliklarni barcha uchun bir xil emas, balki bolaning qobiliyatiga qarab 3 xil darajada berishadi. AQSH va Yevropada: "Universal Design for

Learning" (UDL - O'qitishning universal dizayni) degan tushuncha bor. Bu aynan bizning metodikadagi Integratsiya qismidir. Ya'ni, dars bir vaqtning o'zida ko'rish, eshitish va ushlab ko'rish organlariga mo'ljallangan bo'ladi. Singapurda: Matematika darslarida "CPA approach" (Concrete, Pictorial, Abstract) qo'llaniladi. Bu bizning metodikaning Innovatsion Adaptatsiya qismiga juda o'xshash (avval buyum bilan, keyin rasm bilan, keyin raqam bilan o'rgatish). Metodikaning "yutuqli" ekani shundaki, u "O'rta darajadagi bolani kamsitmaydi, kuchli bolani to'xtatmaydi, muhtoj bolani chetlatmaydi".

An'anaviy ta'lim: Hammaga bir xil bo'yli narvon beradi. Bo'yi past bola (inklyuziv) devordan osha olmaydi, bo'yi baland (iqtidorli) bola uchun esa narvon keraksiz (zerikarli). IDIA metodikasi: Bo'yi past bolaga baland narvon, o'rtacha bolaga o'rtacha narvon, bo'yi baland bolaga esa devordan oshib tushgandan keyingi yugurish yo'lagini beradi. Natijada hamma bir vaqtda maqsadga yetadi. Men bu metodikani tavsiya qilishim va ishlab chiqishda jahon ta'limidagi UDL (Universal Design for Learning) va Bloom taksonomiyasini boshlang'ich sinfning o'zbek modeliga moslashtirdim. Boshqa fanlarda (Til, Matematika, San'at) bu elementlar alohida-alohida qo'llanilgan, lekin men ularni bir butun tizim (metodika) holiga keltirib, inklyuziv muhitga integratsiya qildim. Vaqt resursi: O'qituvchi darsga tayyorlanishda bir emas, uch xil darajadagi topshiriq va turli vizual materiallar tayyorlashi kerak. Bu katta mehnat talab qiladi. Texnik ta'minot: Innovatsion qismni amalga oshirish uchun maktabda internet, planshet yoki smartdoska bo'lishi shart. Hamma maktablarda ham bu imkoniyat yo'q. Sinfidagi o'quvchilar soni: Agar sinfda 25- 30 ta bola bo'lsa, har bir inklyuziv bolaga diferensial yondashish jismonan qiyin. Kadrlar tayyorgarligi: O'qituvchidan nafaqat pedagogik, balki psixologik va IT ko'nikmalar ham talab qilinadi.

Ko'rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun: Moslashtirish: Matnli ma'lumotlar audio formatga (ovozli yozuv) o'tkaziladi. Vositasi: Bo'rtma harfar, geometrik figuralarning 3D modellari. IDIA komponenti: "I" (Integratsiyalashgan kontent) — eshitish va ushlab ko'rish orqali o'rganish.

Eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun: Moslashtirish: Barcha nutqiy ma'lumotlar vizuallashtiriladi (infografkalar, subtitrli videolar, rasmsxemalar). Vositasi: Vizual lug'atlar, daktil (qo'l barmoqlari) alifbosi tasvirlari. IDIA komponenti: "I" (Innovatsiya) videoko'rsatmalardan foydalanish. Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik (ADHD) bor bolalar uchun: Moslashtirish: Topshiriqlar juda qisqa va qiziqarli (o'yin shaklida) beriladi. Vositasi: Taymerlar (vaqtni nazorat qilish uchun), interaktiv o'yinlar. IDIA komponenti: "D" (Diferensial yondashuv) ular uchun tez- tez almashib turadigan qisqa topshiriqlar.

"IDIA" Barcha bolalar uchun yagona integratsiya modeli Sinfda 4 xil toifa bor deb tasavvur qilamiz: Sog'lom bolalar, Ko'rishda nuqsoni borlar, Eshitishda nuqsoni borlar va Autizm (ASB) bor bolalar. 1. I Integratsiyalashgan kontent (Barcha hissiyotlar uchun) O'qituvchi darsni shunday tashkil qiladiki, ma'lumot barcha "kanal"lar orqali kiradi: Vizual: Smart-doskadagi yirik va rangli tasvirlar (Eshitishda nuqsoni borlar va sog'lomlar uchun). Audial: O'qituvchining aniq nutqi va audio-yozuvlar (Ko'rishda nuqsoni borlar uchun). Taktil/Sensorli: Maxsus "Hissiyotlar qutisi" (Ichida darsga oid buyumlar bor). Masalan, paxta, tosh, qum (Autistlar va ko'rishda nuqsoni borlar uchun). 2. D — Diferensial topshiriqlar (Moslashuvchan zanjir) Bitta mavzu doirasida topshiriqlar 3 xil ko'rinishda beriladi: Matnli: Kitob bilan ishlash (Sog'lom va iqtidorli bolalar). Piktogrammalari: Rasmlar va belgilar orqali muloqot (Autistlar va nutqida nuqsoni borlar). Interaktiv: Harakatli topshiriqlar (Tayanch-harakat a'zosi zaif bolalar uchun

eng qulay holatda).3. I — Innovatsion texnologiyalar (Texnologik tenglik) Har bir bolaga o'z ehtiyojiga ko'ra raqamli yordam beriladi:Planshetlar: Autist bolaga "muloqot tugmasi", ko'zi ojiz bolaga "ekran o'quvchi" (Screen reader), eshitishda nuqsoni bor bolaga "subtitr generatori" bo'lib xizmat qiladi.QR-kodlar: Stol ustidagi QR-kodni skanerlab, bola o'z darajasiga mos o'yinli topshiriqni ochadi.4. A — Adaptiv baholash va muhit (Insonparvarlik)Muhit: Sinfda shovqinni yutuvchi quloqchinlar (Autistlar uchun) va maxsus yoritish tizimi mavjud.Baholash: Hech kim bir-biri bilan solishtirilmaydi. Har bir bolaning "shaxsiy rekordi" (masalan, kecha bitta so'z aytdi, bugun ikkita so'z) yuqori baholanadi.

Umumiy o'rta ta'limda (Oddiy maktablarda) Hatto inklyuziv bola bo'lmagan sinflarda ham o'quvchilar bir xil emas: kimdir tez o'zlashtiradi, kimdir sekin, kimdir "vizual", kimdir "audial". Integratsiya: Darsni YouTube video, amaliy laboratoriya va darslik bilan birlashtirish. Differensiya: Iqtidorli bolalarga "Olimlar guruhi", o'zlashtirishi pastlarga "Izlanuvchilar guruhi" deb nom berib, darajali topshiriq berish. Natija: Sinfda zerikadigan yoki darsdan orqada qoladigan bola qolmaydi. 2. Oliy ta'limda (Universitetlarda)Talabalar bilan ishlashda ma'ruza formatidan voz kechib, IDIAga o'tiladi:Innovatsiya: Ma'ruzani VR (virtual borliq) yoki sun'iy intellekt (ChatGPT) bilan boyitish. Adaptatsiya: Talabalarning ishga joylashish ehtiyojidan kelib chiqib, nazariyani real "case-study"larga moslashtirish. Natija: Talabalarda tanqidiy fikrlash va amaliy ko'nikma shakllanadi. 3.Maktabdan tashqari ta'limda (To'garaklar, sport, san'at)Integratsiya: Musiqa darsida ham nota (vizual), ham ohang (audio), ham asbobni ushlab (taktil) birlashtiriladi. Natija: Bolaning iste'dodi qaysi tomonda ekanligi IDIA orqali tezroq aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinfarda inklyuziv muhitni yaratish faqat texnik jihozlash emas, balki metodik yangilanishdir. Biz taklif etgan IDIA metodikasi bitiruvchi talaba va bo'lajak magistrant sifatida mening shaxsiy metodik hissamdir. Ushbu yondashuv O'zbekiston maktablarida ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 460 b. (Maqolaning Kirish qismida davlat siyosati haqidagi fkr olingan).
2. Ibragimova G.N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 180 b. (Diferensial yondashuv ta'rif va samaradorlik ko'rsatkichlari olingan).
3. Выготский Л.С. Основы дефектологии. – Москва: Педагогика, 2005. – 340 с. (Inklyuziv ta'limning psixologik mohiyati haqidagi fkr olingan).
4. UNESCO. Global Education Monitoring Report: Inclusion and education. Paris, 2020. – 424 p. (Raqamli texnologiyalarning roli haqidagi xalqaro xulosa olingan).
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638- sonli qarori. 2021-yil 12-oktabr. (Huquqiy asoslar qismi uchun foydalanilgan).